

BOLALAR SEREBRAL FALAJINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISH JARAYONI

Isodullayeva Iqboloy Sodigjonovna

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasi

Maxsus pedagogika yo'nalishi o'qituvchisi

Maxamatova Flora Baxtiyorovna

Farg'ona Davlat Universiteti Pedagogika Psixologiya fakulteti

Logopediya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotation: Ushbu maqolada bolalar serebral falaji, bu toifadagi bolalar tasavvuri, nutq buzilishining o'ziga xos tomoni, bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblil ikka erishishdagi qiyinchiliklar, bolalardagi harakat buzilishlari, nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, ularni oldini olish usullari haqida ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar : Bolalar serebral falaji, bosh miya, reflekslar, markaziy nerv sistemi, qo'rquv, tonik reflekslar, fonetik fonematik buzilishlar.

Bolalar serebral falaji (BSF) – perinatal davrda bosh miyaning turli xil strukturalarida bo'ladigan o'zgarishlar natijasida kelib chiqadigan harakat doirasidagi patologiyalar bilan kechadigan umumi tushunchadir. Bolalar serebral falaji : bosh miya harakatlanti-ruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligi hisoblanadi. Bolalar serebral falajining kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: surunkali kasalliklar, homila-ning erta yoki kech tug'ilishi, infektion kasalliklar, homiladorlik vaqtida turli xil jaro-hatlanishlar, ona va homila qonining rezus faktori va guruhi bo'yicha to'g'ri kelmasligi, bundan tashqari genetik faktorlar ham asos bo'la oladi. Bolalar serebral falajida harakat sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo'ladi: harakatning buzilishi shunday og'ir bo'lishi mumkinki, u bolaning erkin harakat qilishidan buntunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko'rmagan taqdirda ham bolalar o'ziga o'zi xizmat qilishni qiyinchilik bilan egallaydilar. Bolalar serebral falaji da nutqning kech rivojlanishiga sabab, ularda amaliy faoliyatni yetarli emasligi, atrof-muhit haqida bilim va tasavvurlarni yetishmaslidir. Bolalar serebral falajida nutq buzilishlari patogenezida harakat patologiyasi muhim o'rinn tutadi. Bu holat bola bilan logopedik ishni tashkil qilishda nutq va harakat buzilishlarini klinik va patogenetik umumiyligini tushunish ahamiyatli hisoblanadi. Fonetika – fonematik buzilishlar bolalar serebral falajida dizartriyani o'ziga xos ekanligi, uni nutq muskullariga tonik reflekslar orqali ta'sir etishda namoyon bo'ladi. Bu esa o'tkaziladigan logopedik ishni o'ziga xos ravishda o'tkazishni talab etadi. Bolalar serebral falajining atonik-ataktik shaklidagi miyachaning va miyaning boshqa tizimlari bilan bo'g'liq bo'lgan joylari, ayniqsa k

atta yarim sharlarning peshona bo‘- limlarini jarohatlanishi kuzatiladi. Artikulyatsoin matorikaning buzilganligi muskul to- nusining sustligi, harakatning aniqligi yo‘qolga nligi, ritmning buzilganligida namoyon bo‘ladi. Bolalar serebral falajidagi nutq buzil ishlari ko‘pincha uchrab turadigani dizartriyadir. Diagnostika va korreksiyalashda qi yinchilik tug‘diradigani alaliya hisoblanadi. Chunki, nutqning yo‘qligi bolalarda fikr yuritish faoliyatini rivojlanmasligiga olib keladi. Alaliyada bosh miyaning nutq zonal arini lokal shikastlanishi spetsifik nevrologik simptomlar bilan birgalikda kuzatiladi. Bu ko‘pincha elektroenofalografik tekshiruvlarda tasdiqlanadi. Hozirgi kunda BSF ri vojlanishi sababi sifatida bosh miyaning turli xil omillar ta’sirida zararlanishi, miyani ng ma’lum bir sohalarida nerv hujayralarining noto‘g‘ri shakllanishi yoki nobud bo‘li shini keltirish mumkin. Ushbu omillarning ta’siri perinatal davrda yoki bola dunyoga kelganidan so‘ng qisqa muddatlarda (4 haftagacha) ta’sir etishi kasallik rivojlanish e htimolini oshirib yuboradi. BSF rivojlanishining eng asosiy omili – bu gipoksiyadir. Bolalar serebral falaji turli xil ko‘rinishda turlicha og‘irlik darajasida kechadi. Kasalli kning klinik belgilari bosh miya strukturasining zararlangan sohasi va chuqurlik daraj asiga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zida bolalar serebral falaji belgilari bola dunyoga kelishi bil an yuzaga chiqadi. Ko‘pincha kasallik bir necha oy o‘tgach pediatr ko‘rigida bolani ng jismoniy rivojlanishdan ortda qolishi bilan aniqlanadi. BSF ning barcha ko‘rinis hlarida mushaklar tonusi oshib ketadi. Oyoq-qo‘llarda harakat chegaralanadi, bo‘g‘im larda harakat yo‘qoladi, natijada oyoq qo‘llar mushaklari atrofiyaga uchraydi va ular t anaga nisbatan nomutanosib holatga keladi. Bolalar serebral falaji bilan kasallangan b emorlarda o‘ziga xos tana tuzilishidagi deformatsiyalar (skolioz, ko‘krak qafasi deformatsiyalari) yuzaga chiqadi. Motorika buzilishi, skelet deformatsiyalari bolalarda sur unkali og‘riq sindromiga sabab bo‘ladi. Og‘riq bo‘yin, yelka, belda paydo bo‘ladi. Gi perkinetik shakldagi bolalar serebral falaji to‘satdan yuzaga chiquvchi belgilar: bosh ning qayta qayta bir tomonga burilishi, qaltirash, bir xil harakatni takrorlash kabilan n amoyon bo‘ladi. Atonik-astatik BSF da esa yurish vaqtida muvozanatni saqlay olmaslik, mushaklarning kuchsizligi, yiqilib tushish va tremor holatlari kuzatiladi. Bolalar serebral falajida yuqoridagi belgilardan tashqari g‘ilaylik, oshqozon-ichak tizimidagi o‘zgarishlar, nafas olish bilan bog‘liq muammolar, peshob tuta olmaslik kabi patologiyalar ham qo‘shilishi mumkin. Tahminan 20-40 % BSF epilepsiylar bilan kechadi. 60 %ga yaqin BSF bolalarda ko‘rish qobiliyati bilan bog‘liq muammolar mavjud. Karlik yoki eshitish qobiliyatining pasayishi ham ayrim bemor-larda uchrab turadi. Aqli y jihatdan bolalarda rivojlanishdan ortda qolish, qabul qilish va diqqatni bir joyga jam lash o‘qishda kamchiliklar va xulq atvordagi noodatiy holatlar yaqqol namoyon bo‘lishi ham mumkin. Afsuski, hozirgi kunda bolalar serebral falaji davosi topilmagan kasalliklar qatoriga kiradi. Ammo, o‘z vaqtida boshlangan davo muolajalari ta’sirida bolalar ruhiy jihatdan ham jismoniy jihatdan o‘z tengdoshlariga yetib olishga erishish mumkin. Realibilitatsion muolajalar yordamida bolalarda skelet de-formatsiyalari, bo‘

g‘imlarda harakat cheklanishi hamda bolakaylarning o‘z o‘zlarini mustaqil boshqara olish darajasigacha erishish mumkin. BSF davo programmasi har bir bola uchun aloh ida tuzib chiqiladi. Bunda bosh miyaning zararlanish darjasи, sohasи, boladagi qo‘shi mcha belgilari, uning ko‘rish, eshitish qobiliyati, aqliy-ruhiy holatlari inobatga olina di. BSF bilan kasallangan bolalar muolajasida qiyinchilik tug‘diradigan holat – bolala rdagi karlik ko‘zi ojizlikdir. Bolalar srebral falajida harakat doirasida kamchiliklar k uzatilsa ham bolalar ijtimoiy hayotga moslashib ketishlarining imkonи bor. Bunda ul arning ota-onasi va yaqinlarining roli katta. Bolalarda ijtimoiy adaptatsi- yani shaklla ntirishda reabilitolog, psixolog va pedagoglar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ka sallikdan aziyat chekadigan bolalar maxsus bog‘chalar, maktablarda hayotga bo‘lga n moslashuvchanliklarini oshirib boradilar.

Bolalar serebral falajida logopedik ishning maqsadi artikulatsion holat va hara kat sez- gilarini rivojlantirishdan iborat. Artikulyatsion harakat sezgilarini yaxshilash uchun olib boriladigan mashqlar oyna yordamida harakatlarni ochiq ko‘z bilan kuzati sh va harakat-larini yopiq ko‘z bilan diqqatli bo‘lib, sezish kabi mashqlar bosqichma-bosqich qo‘llani-ladi. Logopedik ish bolani shunday holatida o‘tkaziladiki, tonik refle kslar nutq matorikasiga deyarli ta’sir o‘tkazmasligi talab etiladi. Bu holat logoped va nevropotolog hamkor-ligida amalga oshiriladi. Agarda bola logopedik mashg‘ulot o‘t ilayotganda o‘tirgan ho- latda bo‘lsa diqqatni uni boshini harakatiga qaratish zarur. X ulosa qilib aytganda “Serebral falajlanish nuqsoniga ega bolalar” bilan lug‘atni shakl lantirish bo‘yicha ishlar bosqichma - bosqich amalga oshirib boriladi. Birinchi bosqic hda bolalar predmetlar bilan ularning tasviri va ular bilan bajariladigan ishlar bilan bi rlamchi tanishtiriladi. Bu o‘rinda bolaning e’tiborini jalb qilishga va uning javob reak siyasini qo‘zg‘atishga yordam beradigan bir qator usullar qo‘llaniladi: ya’ni predmetni kutilmaganda, to‘satdan paydo bo‘lib qolishi, yo‘qolishi , uning harakati. Shunday qilib serebral falajli bolalar leksikasini takomillashtirish va boyitish predmet – amali y o‘yin faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda olib borish, shuningdek, sensor funksiyalari rivojlantirish va ularning korreksiyasini ongli faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda tashkil qilishni ko‘rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.R.Madazizova " Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari "T.: O‘zbekiston faylasuflari milly jamiyati "nashriyoti 2018.
2. M.Y.Ayupova "Logopediya " T.:O‘zbekiston faylasuflari million jamiyati " nashriyoti 2007.
3. V.S.Raxmanova "Defektologiya asoslari " T.: "Niso Poligraf "nashriyoti 2014.
4. [w.w.w.https://lex.uz](http://www.lex.uz)